



**YANGI O'ZBEKİSTON,
YANGI İMKONİYATLAR,
YANGI AVIAKİOMPAÑİYA**

Yillik hisobot
2022-yil uchun

MUNDARIJA

- Boshqaruv raisining murojaati
- Kompaniyaning missiyasi va istiqboli
- Boshqaruv a'zolari
- Aviakompaniya tuzilmasi
- Asosiy moliyaviy va operatsion ko'rsatkichlar
- Aviatashuvlar bozorining qisqacha sharhi
- Aviakompaniya strategiyasi
- Aviakompaniya floti
- Yo'lovchi tashuvlarining yo'nalishlar tarmog'i
- Yuk tashuvlarining yo'nalishlar tarmog'i
- "Uzbekistan Airways Express" loukosteri
- Biznes-aviatsiya
- Sho'ba korxonalar
- Aviakompaniyalar bilan hamkorlik
- Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish
- Parvozga layoqatlilikni ta'minlash
- Parvozlarni amalga oshirish
- Korporativ boshqaruv va axborot texnologiyalari
- Bizning xodimlarimiz
- "Uzbekistan Airways"ning barqaror rivojlanishi



**“Uzbekistan Airways” AJ
Kompaniyalar guruhi
Boshqaruvi raisi**

Hurmatli Kuzatuv kengashi a’zolari, mijozlar, biznes hamkorlar va xodimlar!

Biz COVID-19 pandemiysi sabab bo’lgan barcha to’siqlarga qaramay, 2022-yilni muvaffaqiyat bilan yakunladik. Ko’p qiyinchiliklarga duch keldik, ammo davlat ko’magi, mutaxassislarimizning kasbiy mahorati va aviakompaniyani tezkor moliyaviy sog’lomlashirish bo'yicha ishlab chiqilgan muvaffaqiyatli chora-tadbirlar rejasiga tufayli pandemiya oqibatlarini yengib o’tishga muvaffaq bo’ldik. Biz nafaqat 2019-yildagi ko’rsatkichlarga qaytdik, balki dadil ayta olamanki, biznesning ayrim yo’nalishlari bo'yicha moliyaviy ko’rsatkichlarimizni ikki baravar yaxshilashga erishdik.

2022-yilda aviakompaniyaning sof daromadi 12 273 mlrd so’mni (1,09 mlrd AQSH dollarji) tashkil etdi.

Biz O’zbekiston Respublikasi Hukumatiga, ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga, vazirlik va idoralarga O’zbekistonda aviatsiya sektorini qo’llab-quvvatlashga qo’shgan alohida hissasi uchun samimiyy minnatdorchiligidizni izhor etamiz.

28 140
qatnov
bajarildi



Biz, katta aviatorlar oilasi sifatida, Vatanimiz va Xalqimiz bilan faxrlanamiz, serquyosh Respublikamiz bayrog'ini ko'tarib, xalqaro aviatsiya maydonida munosib namoyon etishda bildirilgan ishonch uchun minnatdorchilik bildiramiz. Pandemiya davrida tasdiqlangan xarajatlarni qisqartirish chora-tadbirlari rejasi o'z samarasini berdi. "Uzbekistan Airways" moslashuvchanlik va tezkorlik bilan faoliyati yo'nalishini yuk tashuvlarini rivojlantirishga qaratib, bozorda qolishga muvaffaq bo'ldi. Tezkor munosabat va Harakatlar rejasiga qat'iy rioya qilish "Uzbekistan Airways"ga nafaqat COVID-19 pandemiysi qiyinchiliklarini muvaffaqiyatli yengib o'tishga, balki 2022-yilda ham natijadorlikni ko'rsatishga yordam berdi. "Uzbekistan Airways" 17 ta yo'nalish bo'yicha muntazam qatnovlarni tikladi va 15 ta yangi yo'nalish bo'yicha parvozlarni yo'lga qo'ydi. Bizning jamoa o'z sho'ba korxonalarimizning ko'rsatkichlarini yaxshilash ustida faol ish olib bormoqda. 2022-yilda pandemiya davrida Davlatimiz tomonidan yordam sifatida berilgan davlat qarzi muddatidan oldin to'landi.

Jamoamiz flot samaradorligi borasida maqbul yechimni topish uchun har doim izlanishda. Biz Boeing 757 havo kemalaridan voz kechdir va tejamkor A320 va A321neo havo kemalaridan foydalanishni boshladik, bu esa, nafaqat yo'lovchilar uchun qulayliklar darajasini oshirish hamda aviakompaniya xarajatlarini kamaytirishga, balki Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib yoqilg'i tejaydigan yangi avlod samolyotlaridan bunday miqyosda foydalanishni boshlab, kelajakka sarmoya kiritishga imkon beradi.

Biz atrof-muhitni muhofaza qilish dasturini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. 2023-yildan keng ko'lamli kampaniya boshlandi:

- "Uzbekistan Airways" va "Uzbekistan Airways Express" havo kemalarida bir martalik idishlardan foydalanishdan voz kechish,
- aviakompaniya ofislari va barcha sho'ba korxonalarida quyosh energiyasidan foydalanish;
- Guruh xodimlarini sog'lom turmush tarziga va plastic idishlardan ongli ravishda foydalanishga undaydigan dasturni ishlab chiqish.

Biz xizmatimiz sifati ustida ishlashni davom ettirmoqdamiz, chunki bizning shiorimiz "Xavfsizlik, barqarorlik, qulaylik".

Biz yo'lovchilar chipta sotib olgan paytdan boshlab, bortkuzatuvchilarimiz ularni mintaqamizdagi eng tez rivojlanayotgan "Uzbekistan Airways" aviakompaniyasini tanlaganlari uchun tabassum va minnatdorchilik bilan samolyot sahnidan kuzatib qo'yishlarigacha bo'lgan jarayonda ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash ustida ishlamoqdamiz.

Men barcha xodimlarimiz, aksiyadorlarimiz va hamkorlarimizga milliy aviakompaniyamizni qo'llab-quvvatlaganliklari va g'amxo'rliklari uchun tashakkur bildirmoqchiman

Biz kelajakka ishonch bilan qaraymiz hamda barcha sa'y-harakatlarimiz muvaffaqiyatli bo'lishi va yo'lovchilarimiz pandemiyaning salbiy oqibatlarini ortda qoldirib, "Uzbekistan Airways"ning xavfsiz qanotlarida qulaylikdan bahramand bo'lishlariga aminmiz!!

Shuxrat Xudaykulov
"Uzbekistan Airways"
Boshqaruvi raisi

67

muntazam
yo'nalish



“Uzbekistan Airways” missiyasi va istiqboli

MISSIYASI

Biz havo transportida yuqori sifatli va ishonchli xizmatlarni ko'rsatuvchi, xavfsiz va qulay parvozлarni ta'minlaydigan, yo'lovchilar va mijozlarimizning ehtiyojlarini kutganlardan ham a'lo darajada qondiradigan mintaqadagi yetakchi aviakompaniya bo'llishga intilamiz.

Bizning maqsadimiz butun dunyo bo'ylab odamlar, joylar va madaniyatlarni bir-biriga bog'lagan holda, havo aloqalarining o'zaro bir'liqligini va ulardan foydalanish imkonini maksimal darajada ta'minlashdir.

ISTIQBOLI

“Uzbekistan Airways”ning istiqboli Markaziy Osiyodagi yetakchi aviatashuvchiga aylanish va havo transporti tashuvlarida sifat, xavfsizlik va qulaylik bo'yicha yangi standartlarni o'rnatishdan iborat. Biz aviatkorxonamizni mintaqada mukammallik va birinchi darajali xizmat ko'rsatish ramziga aylantirishga intilamiz



Ustuvor vazifalarimiz

1

"Uzbekistan Airways" uchun **birinchi ustuvor vazifa** parvozning barcha bosqichlarida yo'lovchilar va xodimlar xavfsizligini ta'minlashdir. Biz parvozlarimiz minimal xavf va maksimal darajadagi xavfsizlik bilan amalga oshirilishini kafolatlash uchun eng yangi texnologiyalar va o'qitish usullarini faol joriy qilamiz.

2

Istiqlomizning **ikkinchi** jihatü yo'ovchilar uchun eng yuqori darajadagi qulaylikni ta'minlashdir. Turli yo'lovchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun biz xizmatlarning keng ko'lamini taqdim etishga intilamiz. Maqsadimiz - qulay o'rindiqlar va ko'ngilochar tizimlarga ega, bortida sifatli xizmat ko'rsatiladigan zamonaviy samolyotlarni taklif etish orqali "Uzbekistan Airways" bilan har bir parvozni yoqimli va qulay qilishdir.

3

Istiqlomizning **uchinchi** jihatü Markaziy Osiyo va undan tashqarida "Uzbekistan Airways" yo'nalishlar tarmog'ini rivojlantirishdir. Biz O'zbekiston shaharlarini mintaqadagi va dunyodagi asosiy shaharlar va sayyohlik yo'nalishlari bilan bog'laydigan muntazam va charter qatnovlarning keng tanlovini taklif qilishga intilamiz.. Maqsadimiz – Markaziy Osiyo va dunyoning boshqa hududlari o'rtasida ishonchli ko'priq bo'lib, turizm, biznes va madaniy aloqalarni rivojlantirishga hissa qo'shish.

4

Istiqlomizning **to'rtinchi** jihatü innovatsiyalarga doimiy intilish va xizmatlar sifatini oshirishdir. Biz aviatsiya sanoati sohasida eng yangi texnologiyalarni faol joriy etamiz, shuningdek, yetakchi xalqaro aviakompaniyalar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantiramiz. Biz "Uzbekistan Airways" yo'lovchilari uchun innovations yechimlar va noyob imkoniyatlarni taklif qilib, raqobatchilardan oldinda bo'lishni istaymiz.



Boshqaruv a'zolari



Xudaykulov Shuxrat Shavkatovich

Boshqaruv raisi

1984-yil 26-iyulda Urganch shahrida tug'ilgan.

Sankt-Peterburg fuqaro aviatsiyasi davlat universitetini "Aviatsiya tashuvarini tashkil etish" mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan. O'z mehnat faoliyatini 2006-yilda "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasining "Toshkent" xalqaro aeroportiga aviatashuvlarga xizmat ko'rsatishni tashkil etish agenti sifatida boshlagan. 2017-yildan boshlab "O'zbekiston havo yo'llari" MAK Tijorat departamenti direktori bo'lib ishlagan.

2020-yildan boshlab Boshqaruv raisining tijorat va turizm bo'yicha o'rinnbosari lavozimini egallab kelgan.



Xusanov Umid Abrorovich

Boshqaruv raisi birinchi o'rinnbosari

1977-yil 18-aprelda Toshkent viloyatida tug'ilgan.

Toshkent davlat aviatsiya institutini muhandis-mexanik mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan. O'z mehnat faoliyatini "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasining Toshkent aviatsiya-texnika majmuasida aviatsiya-texnika bazasida boshlagan. Shuningdek, Davlat aviatsiya nazorati (hozirda "Uzaviatsiya" agentligi)da parvozlar xavfsizligini sertifikatlash, litsenziyalash va nazorat qilish boshqarmasi boshlig'i, so'ngra parvozlar xavfsizligi inspeksiyasining bosh inspektori bo'lib ishlagan. 2019-yildan buyon Boshqaruv raisining birinchi o'rinnbosari lavozimini egallab kelmoqda.



Sattarov Alisher Abduvaxabovich

"Uzbekistan Airways" AJ Boshqaruv raisining moliyaviy masalalar bo'yicha o'rinnbosari

1978-yil 4-mayda Toshkent shahrida tug'ilgan

Toshkent davlat sharqshunoslik institutini tamomlagan . LIDS universitetining (London, Buyuk Britaniya) magistrlik darajasiga ega. Mehnat faoliyatini 2003-yilda "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasining Moliya-iqtisodiyot departamenti boshlagan. 2011-yildan boshlab Moliya-iqtisodiyot departamenti direktori lavozimini egallagan.

2022-yildan buyon Boshqaruv raisining moliyaviy masalalar bo'yicha o'rinnbosari lavozimida ishlaydi.



Yadgarov Shuxratillo Shavkatovich

"Uzbekistan Airways" AJ Boshqaruv raisining tijorat va turizm bo'yicha o'rinnbosari

1983-yil 25-fevralda Buxoro shahrida tug'ilgan.

Toshkent davlat aviatsiya institutini tamomlagan

Mehnat faoliyatini "O'zbekiston havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasida 2004-yilda muhandis-supervayzer sifatida boshlagan. 2018-yildan boshlab Tijorat departamenti direktori o'rinnbosari lavozimida ishlab kelgan. 2019-yildan Aviatashivlar sotuvi va marketingi departamenti direktori lavozimida ishlagan. 2023-yildan Boshqaruv raisining tijorat va turizm bo'yicha o'rinnbosari vazifasini bajaruvchi etib tayinlangan.



Ikramov Shahzod Ilyasovich

Boshqaruv raisining parvoz ishlarini tashkil etish
bo'yicha o'rinnbosari

1971-yil 7-mayda Toshkent shahrida tug'ilgan. Balashov nomidagi uchuvchilar oliy harbiy aviatsiya maktabini tamomlagan Mehnat faoliyatini 1997-yilda "O'zbekiston havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasining O'quv markazida boshlagan 2019-yilda Boeing 787 uchuvchilar otryadi komandiri o'rinnbosari etib tayinlangan.



Hakimov Baxtiyor Ibragimovich

Boshqaruv raisining o'ta muhim parvozlar bo'yicha
o'rinnbosari

1972-yil 24-dekabrda Damashqda (Suriya) tug'ilgan. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti va Toshkent davlat aviatsiya institutini tamomlagan Mehnat faoliyatini 1992-yilda "O'zbekiston havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasining "Toshkent" aeroportida boshlagan. O'zbekiston havo yo'llari" MAK direksiyasida turli lavozimlarda ishlagan. 2011-yildan Islom Karimov nomidagi "Toshkent" xalqaro aeroporti direktori lavozimida ishlab kelgan. 2019-2021-yillarda "Uzbekistan Airways" MAK Boshqaruvi raisi lavozimida ishlagan.




Uralov Sunnatillo Rajabalievich

Boshqaruv raisining aviatsiya xavfsizligi
bo'yicha o'rinnbosari




AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHI






Asosiy moliyaviy va operatsion ko'rsatkichlar



* pochta va pullik bagajni hisobga
olgan holda


Qatnovlarning mintaqalar bo'yicha taqsimoti



11 %
2021-yilga nisbatan yo'lovchilar o'rindiqlari bandligining ortishi




Pul oqimlari



EBITDA
marja
15%


Daromadlar taqsimlanishi (mlrd. so'm)




Sof foyda
5,4
barobarga
ortdi*

* 2022-yilda, 2021-yilga nisbatan

Sof daromad (mlrd. so'm)






Qatnovlar soni	2018	2019	2020	2021	2022
Uzoq xorij	6 981	8 483	4 249	5 784	8 807
MDH mamlakatlari	9 807	12 075	3 872	8 033	12 824
Mahalliy yo'nalishlar	5 800	5 907	1 892	3 924	6 509
Jami	22 588	26 465	10 013	17 741	28 140

Tijoriy yuklanish (%)

Yo'lovchi aylanmasi ko'rsatkichlari tahlili (ASK/RPK), mln. ykm



Inqirozga qarshi chora-tadbirlar rejasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasida "Uzbekistan Airways" qanotlarida tashilgan yo'lovchilar soni 2022-yilda 195% ga ortdi.



Aviatashuvlar bozorining qisqacha sharhi

2022-yilda yo'lovchi tashuvlari bozori COVID-19 pandemiyasining ta'siri sababli 2020-2021-yillardagi past darajadan nisbatan tiklanishda davom etdi. IATA hisobotlariga ko'rta, 2022-yilda aviatsiya sanoatidagi umumiy yo'qotishlariga qaramay, COVID-19 bilan bog'liq cheklovlar olib tashlanganligi bois, bozor butun dunyo bo'ylab tiklanishni boshladi. Biroq, Xitoyning Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi antikoronavirus siyosati tufayli dunyo bo'ylab yo'lovchi oqimining 34 foizini tashkil etgan aviatsiya bozorida bu ko'rsatkich 22 foizga tushib ketdi. Shu o'rinda, Evropa va Shimoliy Amerika dunyo yo'lovchi tashuvlari bozorida o'z ulushini oshirdi.

O'zbekiston Respublikasi aviatsiya bozori

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi aholi soni 35 mln. kishidan oshdi. Respublikamizning barcha hududlarida iqtisodiyotning jadal rivojlanishi barcha mahalliy yo'nalishlar bo'yicha aviatashuvlarga bo'lgan talabni oshirdi. Shuningdek, chet eldan sayohatlarning asta-sekin tiklanishi aviatashuvlarga bo'lgan talabga ijobji ta'sir ko'rsatdi.

Ta'kidlash joizki, pandemiyadan keyingi davrda ichki turizm keskin o'sib, Farg'on'a viloyatidan Samarqand va Xorazm viloyatlariga to'g'ridan-to'g'ri tashuvlarga talab ortdi.

2022-yilda respublika mahalliy yo'nalishlarida taklif etilgan yangi mahsulot – "Uzbekistan Airways Express" muvaffaqiyatli qabul qilindi. Ushbu loukoster havo kemalarida aviakompaniya aviatasuvlar narxini taxminan 20 foizga kamaytirishga muvaffaq bo'ldi.

2023-yil uchun proqnoz

IATA proqnozlariga ko'rta, aviatsiya sanoati 2023 yilda daromadli bo'lishi kutilmoqda. Aviakompaniyalar 779 milliard AQSh dollari miqdoridagi daromaddan (toza foydaniнг 0,6 foizi) 4,7 milliard AQSh dollari miqdoridagi global sof foyda oladi. Bu kutilayotgan yaxshilanish, jahon yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'ati 1,3% gacha pasayishi (2022-yilda 2,9% dan) bilan bog'liq iqtisodiy noaniqlik kuchayib borayotganiga qaramay, proqnoz qilinmoqda. IATAning 2023-yil uchun proqnozlari iqtisodiy noaniqlikka qaramay, bir necha sabablarga ko'ra juda optimistikdir. Neft narxlari inflyatsiyasining pasayishi va talabning qondirilmay qolishi, kuchli o'sish tendentsiyasi saqlanib qolgan sharoitda xarajatlarni ushlab turishga yordam berishi kerak.

Aviakompaniyalarning 2023-yilda yo'lovchi va yuk tashuvlari bozoridagi muvaffaqiyatining asosiy omillari hushyorlik, moslashuvchanlik va istiqbolni chuqr ko'rishdir (yetkazib berish ekotizimidagi hamkorlikni kengaytirish).

COVID-19 keltirib
chiqargan
oqibatlarga va
global iqtisodiy
noaniqlikka
qaramay,
"Uzbekistan
Airways" taqdim
etilayotgan
tashuvlar
jarayonining har
bir bosqichini
takomillashtirish
ustida ishslashda
davom etmoqda.



Asosiy drayverlar

Yo'lovchi tashuvlari:

2023-yil davomida dunyo bo'yicha yo'lovchi tashuvlariga bo'lgan talab 2019-yildagi darajaning 85,5 foizini tashkil etishi kutilmoqda. Ko'p jihatdan bu prognoz ichki va xalqaro bozorlarni cheklaydigan Xitoyning nol darajadagi COVID siyosatining noaniqligini hisobga oladi. Shunga qaramay, yo'lovchilar soni 2019-yildan buyon birinchi marta to'rt milliarddan oshishi, 4,2 milliard sayohatchi parvoz qilishi kutilmoqda.

Xarajatlar:

Umumiylar 5,3 foizga o'sishi kutilmoqda. Ushbu o'sish daromadning o'sishidan 1,8 foiz punktga past bo'lib, rentabellikka qaytishni ta'minlaydi. Ishchi kuchi, ko'nikma va quvvat yetishmasligi tufayli xarajatlar bosimi sezilishda davom etmoqda. Infratuzilma xarajatlari ham tashvishga soladi. Aviakompaniyalarning samaradorligini oshirish hisobiga yo'lovchi yuklanishi koeffitsiyenti 81,0 foizgacha (2019-yilda 82,6 foiz) oshadi. Umumiylar 2023-yilda xarajatlarning taxminan 30 foizini tashkil etishi kutilmoqda. IATA prognozi Brent neftining bir barreli uchun 92,3 dollar miqdoridagi qiymatiga asoslangan (2022-yildagi bir barrel uchun o'rtacha 103,2 dollar ko'rsatkich bilan taqqoslaganda). Prognozlarga ko'ra, aviatsiya kerosini narxi bir barrel uchun o'rtacha 111,9 dollarni tashkil etadi (2022-yildagi bir barrel uchun 138,8 dollar ko'rsatkich bilan taqqoslaganda). Ushbu pasayish yoqilg'i yetkazib berish nisbatan barqarorlashganligini aks ettiradi.

* “Uzbekistan Airways” ma'lumoti

* IATA Industry report – December 2022

* IATA Annual Review 2022

* KPMG The supply chain trends shaking up 2023

Yuk tashuvlari:

2023-yilda yuk tashuvlari bozorlari yuqori bosim ostida bo'lishi kutilmoqda. Dunyo bo'yicha daromadlar 149,4 mlrd dollarni tashkil etadi, bu 2022-yilga nisbatan 52 mlrd dollarga kam, ammo 2019-yilga nisbatan 48,6 mlrd dollarga ko'pdir. Iqtisodiy noaniqliklar sharoitida IATA yuk aylanmasining 22,6 foizga qisqarishi, asosan, 2023-yilning ikkinchi yarmida, inflyatsiyani pasaytirish chora-tadbirlarining keskin ta'siri kuzatilgan vaqtida yuz berishini kutmoqda. Biroq, kutilayotgan sezilarli pasayishda ham, yuk tashuvlarining daromadliligi COVID-19dan oldin mavjud bo'lgan darajadan ancha yuqoridir.

Xavflar:

Istiqbolda Xitoyning xalqaro harakatlar uchun bosqichma-bosqich ochilishi va 2023-yilning ikkinchi yarmidan boshlab ichki cheklovlarining asta-sekin yumshatilishi kutilmoqda.

Barqarorlik ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida infratuzilma uchun yig'imlar yoki soliqlarni oshirish bo'yicha takliflar, agar ular amalga oshsa, 2023-yilda daromadlilikni pasaytirishi mumkin. Aviakompaniya rahbariyatining ishi murakkabligicha qoladi, chunki iqtisodiy noaniqlikni diqqat bilan kuzatish juda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Rentabellikning past darajasi sababki har bir tashilgan yo'lovchi sanoatning sof foydasiga o'rtacha 1,11 dollar keltirishi kutilmoqda.



Aviakompaniya strategiyasi

1 Tijorat faoliyatini takomillashtirish

"Uzbekistan Airways" o'z tijorat faoliyatini:

- "Uzbekistan Airways Express" brendining jozibadorligi va taniqliligini oshirish;
- e-commerce bilan hamkorlik qilish hisobiga aviakompaniyaning yuk bozorida mustahkam mavqeini o'rnatish yo'li bilan takomillashtirishni ko'zlaydi. *

2 Xarajatlarni optimallashtirish

"Uzbekistan Airways" xarajatlarni:

- kreditlarni qaytarish (foizlar bo'yicha xarajatlarni qisqartirish uchun asosiy qarzni muddatidan oldin to'lash);
- ish haqi (bortkuzatuvchilarni muddatli mehnat shartnomalariga o'tkazish masalasini ishlab chiqish, uchuvchilar tarkibiga mehnat jarohati uchun nafaqa to'lashni bekor qilish). Pensiya yoshiga yetgandan keyin, pensiyani hisoblashda uchuvchilar va texnik xodimlar uchun limitni bekor qilib, munosib pensiya olish uchun muqobil usulni ishlab chiqish);
- samolyotlarni ijara olish (ijara muddatini oshirish hisobiga ijara narxini arzonlashtirish va texnik xizmat ko'rsatish zaxiralari darajasini pasaytirish uchun "BOC Aviation" kompaniyasi bilan muzokaralar o'tkazish);
- bojxona to'lovlar (QQS hisoblanadigan summasini kamaytirish uchun POOL bo'yicha olinadigan ehtiyoj qismalarning faktura qiymatini kamaytirish) hisobiga qisqartirishni rejalashtirmoqda.

3 Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash

Yuqori texnologiyalarni joriy etish va sodiqlik dasturini takomillashtirish yo'li bilan. "Uzbekistan Airways" rasmii veb-sayti orqali yo'lovchi aviatashuvlari bozoridagi jahon tendensiyalariga mos keladigan qo'shimcha xizmatlar (mehmonxona, avtomobilarni bozor narxlaridan past narxlarda bron qilish) sotuvini oshirishni rejalashtirmoqda.

4 Unumdorlikni oshirish

"Uzbekistan Airways" tarif siyosatini moslashuvchan asosida boshqarish va daromadlarni optimallashtirish, aviachiptalarni veb-sayt orqali sotish hajmini oshirish, asosiy hamkor aviakompaniyalar bilan o'zaro hamkorlik strategiyasini rivojlantirish, CRM tizimini joriy etish hisobiga samaradorlikni oshirishni ko'zlamoqda.

IATA so'roviga ko'ra, so'rovda qatnashganlarning 91 foizi aviatashuvlar iqtisadiyot uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan


"Uzbekistan Airways" uchta asosiy ustuvor yo'nalish - "Xavfsizlik, barqarorlik va qulaylik"ga muvofiq manfaatdor tomonlar bilan mustahkam hamkorlik aloqalarini o'rnatishga intiladi.



Xarajatlarni kamaytirish va optimallashtirish maqsadiga rioya qilgan holda, 2022-yil davomida "Uzbekistan Airways" tomonidan aviakompaniya xarajatlarini kamaytirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi va quyidagi natijalarga erishildi.

2022-2025-yillarda kredit yuklamasini kamaytirish maqsadida, kreditorlardan qo'shimcha yig'im undirmagan holda, to'lovlarni muddatidan oldin to'lash masalasi kreditorlar bilan ijobjiy hal qilindi. Joriy yilda jami 186,3 million AQSH dollari miqdoridagi mablag' yo'naltirildi, moliyaviy jihatdan eng samarali qaytarish variantini topish va tahlil qilish vazifasi muvaffaqiyatli bajarildi, xususan:

- valyuta kurslari dinamikasini hisobga olindi va eng yaxshi valyuta kombinatsiyasi tanlandi (tejalgan mablag' 155,3 mlrd. so'mni, shu jumladan rubl kursi o'zgarganda 152,9 mlrd. so'mni tashkil etdi);
- katta foya olish uchun eng qimmat kreditlar (yuqori foiz stavkasi, o'sib borayotgan LIBOR va h.k.) ustuvor ravishda qaytarildi (foizlar bo'yicha ' tejalgan mablag' 11,4 million AQSh dollarini tashkil etdi);
- pul mablag'larini o'tkazishda xizmat ko'rsatuvchi bankning shartlari tahlil qilindi, shuningdek, bank (O'zmilliyybank) bilan pul mablag'larini o'tkazish uchun komissiyani 0,5 foizdan 0,3 foizga kamaytirish bo'yicha muzokaralar olib borildi (tejalgan mablag' 18,1 mlrd. so'mni tashkil etdi). **Kreditlarni muddatidan oldin qaytarish bo'yicha qabil qilingan strategiya jami 11,4 mln AQSh dollari va 173,4 mlrd so'mni tejash imkonini berdi. Amalga oshirilayotgan xarajatlarni optimallashtirish siyosati doirasida xorijiy shartnomalar bo'yicha xarajatlarni qisqartirish masalasi ishlab chiqildi, bu esa qariyb 32 mln AQSH dollarini tejash imkonini berdi.**



Debitor
qarzdorlik

64% ga
kamaydi



O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 2020-yil 27-oktyabrdagi PF-6096-son topshirig‘iga muvofiq, aviakompaniya oldiga quyidagi maqsadlar qo‘yildi:

- moliyaviy hisobotlarni MHXSga muvofiq transformatsiya qilish;
- xalqaro auditorlik kompaniyasining (“Katta to‘rtlik”dan) auditorlik xulosasini olish;
- xalqaro kredit reytinglarini olish;
- moliyaviy sog‘omlashtirish strategiyasini ishlab chiqish (o‘rta va uzoq muddatli);
- xaridlar va boshqaruv tizimlarini auditdan o‘tkazishni nazarda tutadigan zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy etish;
- “muvofiglik tizimi” (komplayens) va korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatlarni shakllantirish;
- Kuzatuv kengashi tarkibining kamida 30 foizini va korxona boshqaruvining kamida 3 nafar rahbar lavozimini malakali chet ellik soha mutaxassislari bilan to‘ldirish.

“Uzbekistan Airways” yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirdi, jumladan:

- 2019-2021-yillarda moliyaviy hisobotlarni MBHS (milliy standartlar)dan MHXS (molivayi hisobotning xalqaro standartlari)ga transformatsiya qilish ishlari to‘liq hajmda amalga oshirildi;
- 2019-2023-yillar uchun transformatsiya qilingan hisobotlarni auditdan o‘tkazish uchun “KPMG” xalqaro auditorlik kompaniyasi bilan shartnoma tuzildi. 2019-2020-yillar uchun MHXS bo‘yicha birinchi auditorlik xulosasi olindi. 2023-yilda 2021 va 2022-yillar uchun MHXS bo‘yicha auditorlik xulosalar olinadi.
- “Standard & Poor’s” xalqaro reyting agentligi bilan muzokaralar olib borildi. Aviakompaniya birinchi reyting olish bo‘yicha muzokaralarni davom ettirmoqda;
- “muvofiglik tizimi” (komplayens) va korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tashkil etildi;
- kreditlarni muddatidan oldin qaytarish choralar ko‘rildi;
- aviakompaniya Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali aviakompaniyani boshqarish tizimini joriy etildi;
- “KPMG” xalqaro auditorlik kompaniyasi tomonidan aviakompaniya xaridlari tizimi Forenzik talablari bo‘yicha auditdan o‘tkazildi va tegishli xulosa olindi;
- janob Ulrich Ralf Stiller Kuzatuv kengashi tarkibiga olindi.



Amaldagi flot

Yo'lovchi havo kemalari



Boeing-767
4 ta



Airbus A320 ceo
9 ta



Boeing -787
6 ta



Airbus A320/321 neo
8 ta

Yuk havo kemalari



Boeing -767
2 ta



10 ta

keng fyuzelyajli
havo kemalari

17 ta

tor fyuzelyajli
havo kemalari




2 ta

Yuk havo
kemasi



Qatnovlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



"Uzbekistan Airways" Yevropa, Osiyo va Amerikani hamda O'zbekiston Respublikasining ko'plab shaharlarini bir-biri bilan bog'laydi. Yo'nalishlari tarmogi 25 ta mamlakat, 43 ta shaharni qamrab oladi. 2022-yilda "Uzbekistan Airways" parvozlar tarmog'iiga Perm, Omsk, Orenburg va Irkutsk shaharlari ham qo'shildi.

Transfer yo'lovchi oqimini rivojlantirish aviakompaniyaning strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib, transfer oqimining o'ttacha miqdori 12-13%ni tashkil etmoqda.

Havo kemalari parki ko'payishi bilan "Uzbekistan Airways" transfer oqimini 35 foizdan 65 foizgacha bo'lgan nisbatda maqsadli yo'naltirish amaliyotini tiklaydi, shundan 35 foizi transfer yo'lovchilarni va 65 foizi to'g'ridan-to'g'ri yo'lovchilarni tashlik etadi.






Yuk tashish yo'nalishlari tarmog'i

2020-yil boshidan buyon jahon iqtisodiyotining ko'plab tarmoqlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan COVID-19 pandemiyasi fuqaro aviatsiyasi tarixidagi eng yirik inqirozni boshlab berdi. Ijtimoiy aloqani kamaytirish va kundalik hayotni muloqotsiz muhitga aylantirish uchun harakatlar qilindi. Ushbu favqulodda holat sayohatlarni global miqyosda taqiqlash va ommaviy harakatlar qattiq nazorat qilingan va cheklangan davrga olib keldi. Aviakompaniyalar yo'lovchilar oqimining keskin kamayishi tufayli inqirozga yuz tutdi. Pandemiya sababli chegaralarning yopilishi, qatnovlarning bekor qilinishi, aholining onlayn xaridlarga o'tishi, masofaviy ishning tarqalishi, iqtisodiy noaniqlik vaishlab chiqarishning global darajada pasayishi logistika sohasida, shuningdek, aviatsiyada katta o'zgarishlarga olib keldi. Dengiz, quruqlik va havoda yuk tashish biznesi yuk tashish imkoniyatlari bilan bog'liq muammolarga duch keldi, bu esa yo'nalishlarni qayta ko'rib chiqish hamda talab va taklif nomutanosibligini tahlil qilish zarurligini ko'rsatdi.

Tez ortib borayotgan talabni, ayniqsa, shaxsiy himoya vositalari, vaksinalar va boshqa tibbiy asbob-uskunalarga bo'lgan talabni qondirish maqsadida yo'lovchi samolyotlarini vaqtinchalik yuk tashish samolyotlariga aylantirish hisobiga yuk havo transportining faoliyati faollashdi. Shuningdek, bir nechta transport turlarini (temir yo'l/dengiz/avtomobil) bir-biriga ulash qiyinligini hisobga olib, aviyuktashuvlari elektron tijorat mahsulotlarini yetkazib berish bozorining bir qismini qamrab olishni boshladi. Aviatashuvlar boshqa transport turlari bilan taqqoslaganda butun dunyo bo'y lab solishtirma daromadning sezilarli o'sishini ko'rsatdi. Yo'lovchi tashish qat'iy cheklovlari davrida "Uzbekistan Airways" havo kemalarini "Passenger – to – Cargo" konsepsiysi bo'yicha qayta jihozladi va shu yo'l bilan ishlab chiqarish quvvatini oshirdi.

Tashilgan yuklar miqdori (tonna)



"Uzbekistan Airways" o'zining geografik joylashuvidan foydalangan hamda Osiyo va Yevropani bog'lagan holda, tariflarga moslashuvchan yondashuv yordamida yuk aylanmasini ikki barobarga oshirishga muvaffaq bo'ldi.



2022-yildagi yuk aylanmasi
323 mln tkm





“Uzbekistan Airways” loukosteri

Aviatashuvlarning gibrild modeliga o’tish doirasida to’rtta A-320 CEO havo kemalari yo’lovchi salonlari to’liq ekonom-klassga qayta jihozlandi, bu esa o’z navbatida “Uzbekistan Airways Express” AJ dasturi doirasida amalga oshiriladigan yo’nalishlarda aviachiptalar narxini 20 foizgacha tushurish imkonini berdi. “Uzbekistan Airways Express” kam byudjetli aviatashuvlar modeli “Uzbekistan Airways”ning “Sub-brend”i sifatida (alohida yuridik shaxsni tashkil etmasdan) tashkil etilgan. Shu maqsadda asosiy aviatashuvchi (ya’ni “Uzbekistan Airways”) tomonidan “Full economy” (to’liq iqtisod) konfiguratsiyasiga qayta jihozlangan A320 CEO havo kemalarining bir qismi ajratildi..

2022-yilda Sharqiy xab loyihasini amalga oshirish, 2023-2024-yillarda “Uzbekistan Airways Express” havo kemalarining xorijiy aviakompaniyalarning kirishiga moyil bo’lgan Samarqand, Urganch va boshqa shaharlarda baza sifatida joylashishini rejalashtirish:

- ✓ 4 ta A320ceo havo kemasi 174 o’rindiqli “Full Economy Class” komponovkasiga qayta jihozlandi;
- ✓ 2023-2024-yillarda qo’shimcha A320ceo havo kemalarini 174 o’rindiqli “Full Economy Class” komponovkasiga jihozlash maqsadga muvofiqligi ko’rib chiqiladi. “Uzbekistan Airways Express” mahsulotini yanada rivojlantirish (tariflar setkasi, qo’shimcha xizmatlar to’plami, reklama/targ’ib qilish) ishlari amalga oshiriladi.



“Uzbekistan
Airways Express”
18 ta
yo’nalish bo’yicha
parvozlarni bajaradi

**"Uzbekistan Airways"
biznesning yangi
yo'nalishini ochdi:**

Biznes aviatsiyasi





Biznes aviatsiyasi

“Uzbekistan Airways” so‘nggi ikki yilda jadal rivojlanayotgan segment – biznes aviatsiyasini qamrab olgan holda, yo‘lovchi tashish sohasida ko‘rsatilayotgan xizmatlar ko‘lamini kengaytirdi. Yo‘lovchilar tomonidan individual va shaxsiy qatnovlarga bo‘lgan talab ortib borayotganini hisobga olgan holda, aviakompaniya ushbu segmentga 2021-yildan kirib kelgan va shu kungacha O‘zbekiston Respublikasida biznes aviatsiyasini rivojlantirishga faol hissa qo‘shtamoqda. “Pilatus PC-24” biznes-jetini olgach, “Uzbekistan Airways” O‘zbekiston Respublikasi va qo‘snni respublikalar aholisi va ishbilarmon doiralari vakillarining talabini qondirish maqsadida ushbu havo kemasiini 2022-yilda Respublikamiz bo‘ylab va uning chegaralaridan tashqarida faol ekspluatatsiya qilishni boshladi.

2022-yilda “Uzbekistan Airways” AJ tomonidan Pilatus PC-24 samolyotida Ostona, Olmaota, Dushanbe, Ashxobod, O’sh, Bishkek, Islomobod, Xo‘jand, Boku, Issiqko‘l kabi shaharlarga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining barcha faoliyat yurituvchi aeroportlariga 100 dan ortiq charter yo‘lovchi qatnovlari amalga oshirildi.

“Pilatus Aircraft” tomonidan ishlab chiqarilgan samolyotlar o‘z toifalarida eng mashhurlaridan biri hisoblanib, ular butun dunyoda ekspluatatsiya qilinadi.



“Uzbekistan Airways”
2022-yildan boshlab
Pilatus PC-24
biznes aviatsiyasi
samolyotlarini faol
ekspluatatsiya qilmoqda



Sho‘ba korxonalar

“Uzbekistan Airways” kompaniyalar guruhi tarkibiga 4 ta sho‘ba korxona va “Uzbekistan Airways Express” brendi kiradi. Yuqori malakali va tajribali kadrlar hamda sho‘ba korxonalarini (Guruhi kompaniyalar) faoliyati tufayli “Uzbekistan Airways” xarajatlarni kamaytirish bilan birga operatsiyalarning moslashuvchanligi, sifati va unumdonligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida aviatsiya va aviatsiya sanoatini rivojlantirishni qo’llab-quvvatlagan Kompaniyalar guruhimiz nafaqat yo‘lovchi va yuk tashuvlariiga, balki ushbu sohada xorijiy va mahalliy aviakompaniyalarga ham xizmat ko‘satmoqda. Bu borada “Uzbekistan Airways” kompaniya aksiyadorlik qiyamatini yaratishga salmoqli hissa qo’shamoqda. “Uzbekistan Airways” ning “katta oilasi” 4640 nafar xodimdan iborat*.



* 2022-yil 31-dekabr holatiga



"UAT" AK

Daromad

353 mlrd.so'm

"UAT" ("Uzbekistan Airways Technics") zamonalivaviatsiya texnik markazi yuqori sifatli muhandislik va texnik xizmatlarning to'liq spektrini taqdim etadi. To'plangan tajriba, ilg'or texnologiyalar, zamonalivjihozlar Aviakompaniya texnik xodimlariga samolyotlarda tranzit tekshiruvlaridan tortib murakkab shakllaridagi turli texnik xizmatlarni bajarish imkonini beradi. Markazning rivojlanishi nafaqat "Uzbekistan Airways" havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatishga bo'lgan ehtiyojni qoplash, balki boshqa operatorlarga ham o'z xizmatlarini taklif qilish imkonini berdi..

**Xodimlar
soni** **1 785**

"O'quv-mashq markazi"

Daromad

24 mlrd.so'm

O'zbekiston Respublikasi Aviatsiya ma'muriyati tomonidan maqqullangan malaka oshirish kurslari ICAO va IOSA standartlariga qat'iy mufosiq ravishda o'tkaziladi. O'quv-mashq'ulot markazida zamonaliv trenajyor majmuasi mavjud. Mashq'ulotlar zamonaliv protsedrali (Virtual Procedure Trainer) va to'liqfunksional (Full Flight Simulator Level D) trenajyorlarda kuniga 24 soat, haftada 7 kun o'tkaziladi. Trenajyorlarning eng murakkab jihozlarining soz holati 99,7 %ga ta'minlanadi.

**Xodimlar
soni** **102**

"Ketring"

Daromad

201 mlrd.so'm

"Ketring" MChJ "Uzbekistan Airways" tarkibiy bo'linmasi hisoblanib, zamonaliv uskunalar bilan jihozlangan. Korxona imkoniyatlari "Toshkent" xalqaro aeroportiga qo'nayotgan barcha aviakompaniyalarining samolyotlarini issiq va sovuq taomlar, turli ichimliklar va mevalar bilan ta'minlash imkonini beradi. "Ketring" 150 ta texnologik uskuna bilan jihozlangan bo'lib, korxonada yo'lovchilar buyurtmalari haqida qisqa vaqt ichida ma'lumotlarni olish imkonini beruvchi "Amadeus" va "SITA" xalqaro tizimlaridan foydalaniladi.

**Xodimlar
soni** **511**

"Uzbekistan Helicopters"

Daromad

21 mlrd.so'm

"Uzbekistan Helicopters" MChJ quyidagi vertolyot xizmatlarini taqdim etadi:

- yo'lovchilarni tashish;
- yuklarni fyuzelaj ichida va tashqi osma yo'il bilan tashish;
- transport va aloqa ishlari;
- qurilish-montaj va yuklash-tushirish ishlari;
- aholiga tibbiy yordam ko'rsatish va sanitariya tadbirlarini o'tkazish bo'yicha parvozlar;
- eksperimental va tadqiqot ishlari;
- neft quvurlari nazoratini amalga oshirish;
- aerofotosuratga olish, qidiruv va tadqiqot parvozları;
- qishloq xo'jaligi yerlari ustidan parvozlar;
- ekskursiya (sayohat) parvozları.

**Xodimlar
soni** **89**



“Uzbekistan Airways Technics” aviakorkonasi


“Uzbekistan airways Technics” MChJ samolyotlar, dvigatellar va butlovchi qismlarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash (TXT) sohasida 98 yildan ortiq tajribaga ega bo'lgan “Uzbekistan Airways” tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi. “UAT” MChJ zamonaiviy majmuasi Boeing 737/757/767/787, Airbus 300/310/318/319/320/321 kabi havo kemalarga va ularning butlovchi qismlariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini amalga oshiradi. Aviakorxonaning Islom Karimov nomidagi “Toshkent” xalqaro aeropoti hududiga tutash bo'lgan qulay geografik joylashuvi istalgan klassdagi havo kemalarini qabul qilish, saqlash, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash imkonini beradi.

“UAT” MChJning tashkil topish tarixi 1924-yil 12-noyabrdan, “Dobrolet” jamiyati qoshida texnikalarni ta'mirlash bo'yicha birinchi ustaxonalardan ochilgan vaqtidan boshlanadi. Ustaxonalarda bir dvigatelli K-4 va K-5, Germaniyaning Junkers, Farmans, Junkers va BMW samolyotlariga texnik xizmat ko'rsatilgan ta'mirlash ishlari bajarilgan. 1937-yilda uning negizida tashkil etilgan 243-sonli fuqaro aviatsiyasi ta'mirlash zavodida ANT-9, R-5, P-5, G-1, G-2, K-4, K-5, U-2 kabi samolyotlarni va BMW-123A, L-5 dvigatellarini ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan. Keyingi yillarda TB-3, Li-2 samolyotlari va M-17, M-34, ASh-62IR dvigatellarini ketma-ket ta'mirlash o'zlashtirildi.

1937 yilda shu asosda tashkil etilgan fuqaro aviatsiyasining 243-sonli samolyot ta'mirlash zavodi ANT-9, R-5, P-5, G-1, G-2, K-4, K-5, U-2 kabi samolyotlarni, BMW-123A, L-5 dvigatellarni ta'mirlashni amalga oshirdi. Keyingi yillarda TB-3, Li-2 samolyotlari va M-17, M-34, ASh-62IR dvigatellarini ta'mirlash ishlari o'zlashtirildi.




Daromad (mlrd. so'm)



2022-yilda xorijiy
aviakompaniyalarga tranzit
xizmatlarini ko'rsatish 2021-yilga
nisbatan 40,4 foizga oshgan

Bajarilgan texnik ishlar (mlrd. so'm)





Ketric

“Uzbekistan Airways” barcha havo kemalarini bort taomlari bilan Ketric MChJ ta’minlaydi. Bort taomlari konsepsiysiyo yo’lovchilar uchun eng xavfsiz va qulay sayohatni ta’minlashga qaratilgan. O’zbeklarning mehmondo’slik an’analalariga sodiq qolgan “Ketric” MChJ bortda ovqatlanishni qadoqlashning zamонавиу texnologiyalaridan foydalangan holda, bortkuzatuvchilar va yo’lovchilar o’tasidagi minimal aloqaga asoslangan bort taomlari konsepsiyasini ishlab chiqdi. Barcha turdag‘ taomlar gigiyenik germetik shaklda, yuqori sifat, sof va ajoyib ta’mni saqlab qolgan holda taqdim etiladi.


2022-yilda “Ketric” MChJ yo’lovchilar uchun 3 million porsiya, shu jumladan “Uzbekistan Airways” uchun 2,7 million porsiya individual bort taomlarini taqdim etdi.

Bugungi kunda “Ketric” MChJ yangi tashkil etilgan “Panorama Airways” (O’zbekiston), “Qanot Sharq” (O’zbekiston), “MY FREGHTER” (O’zbekiston), “Centrum Air” (O’zbekiston) aviakompaniyalarini bort taomlari bilan ta’minlaydi.







Bort taomlari (dona)



Sof foyda



2019-yil bilan taqqoslaganda, 2022-yilda ishlab chiqarilgan taomlar ratsioni soni 26 foizga, 2021-yil bilan taqqoslaganda esa 78 foizga ortgan.



O'quv-mashq markazi

"O'quv-mashq markazi" MChJ O'zbekiston Respublikasi hududida aviatsiya kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha asosiy ta'lim muassasasi hisoblanadi. O'quv-mashq markazida fuqaro aviatsiyasi uchuvchilari, bortkuzatuvchilarining, shuningdek aviakompaniyalarning parvozlarni boshqarish markazlari va parvozlarning aeronavigatsiya ta'minoti xizmatlarida ishlash uchun parvozlar ta'minoti bo'yicha xodimlarning dastlabki tayyorgarligi amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Aviatsiya ma'muriyati tomonidan maqqullangan malaka oshirish kurslari ICAO va IOSA standartlariga qat'iy muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Sifatli xizmatlarni ko'rsatish uchun "O'MM" MChJ xodimlarining kasbiy darajasini doimiy ravishda oshirish quyidagilar:

- ingliz tili, o'zbek tili, lotin yozuvida ish yuritish, trenajorlarda mashg'ulotlar, odob-axloq asoslari, xushmuomalalik va konfliktologiya, bortkuzatuvchilarning dastlabki tayyorgarligi, Airbus 318/319/320/321 va Boeing 757/767/787 samolyotlariga uchuvchilarni qayta tayyorlash kabi fanlar bo'yicha jismoniy shaxslarga xizmatlarni taqdim etish;
- aviatsiya mavzusi bo'yicha masofaviy ta'lim (import o'rnnini bosish) uchun o'quv materialini mustaqil ishlab chiqish;
- uchuvchi tarkiblarning trenajor tayyorgarligi bo'yicha xorijiy aviakompaniyalarga ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmini oshirish hisobiga ko'rsatkichlarning oshishiga sabab bo'ldi.

nazariy
tayyorgarlik
bo'yicha

25 859
pedagogik soat

A-320 Full-flight
simulyatorida

5 111 soat
trenajor
tayyorgarligi



2022-yildagi faoliyat yakunlari bo'yicha "O'MM" MChJ hajmiy ko'rsatkichlari:



1. Nazariy tayyorgarlik:

- dars soatlari soni – 25859 soat
- tinglovchilar soni - 9 327 kishi

2. Trenajyor mashq'ulotlari, soatlar soni:

- Boeing 767-300 - 1942 soat
- Airbus 320 - 5111 soat
- boshqa o'quv-mashq uskunaları - 626 soatni tashkil etdi.

Daromad (mln. so'm)





"Uzbekistan Helicopters"

"Uzbekistan Helicopters" MChJ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5584-son farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi aviatsiya xizmatlari bozorida 1997-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan "Maxsus aviatsiya ishlari aviakompaniyasi" DUKning huquqiy vorisi sifatida tashkil etilgan. "Uzbekistan Helicopters" MChJ "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan berilgan amaldagi Ekspluatant va texnik xizmat ko'satuvchi Tashkilot sertifikatlariga ega.

Hozirgi vaqtida "Uzbekistan Helicopters" MChJ Mi-8MTV-1 hamda "AIRBUS HELICOPTERS" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan H125 va H130 rusumdagи vertolyotlar parkiga ega. Vertolyotlar bazasi Islom Karimov nomidagi "Toshkent" xalqaro aeroportida joylashgan.

"Uzbekistan Helicopters" MChJ ekipajlari turli iqlim sharoitlarida, tog'li va baland tog'li hududlarda ishlash katta tajribasiga ega bo'lgan birinchi toifali uchuvchilardir. "Uzbekistan Helicopters" MChJ muhandis-texnik xodimlari vertolyotlarning parvozga yaroqliligini va Reglamentning barcha shakllari bo'yicha yuqori sifatli texnik xizmat ko'satilishini ta'minlaydilar.

Daromad
21,06
mlrd. so'm





Aviakompaniyalar bilan hamkorlik

2022-yil yakuni holatiga "Uzbekistan Airways" va xorijiy aviatashuvchilar o'tasida:

- 36 ta Interlayn kelishuvlari;
- 18 ta Maxsus proreyt kelishuvlari;
- 8 ta Kod Sher kelishuvlari amal qilmoqda.

2022-yil davomida "WorldTicket" bilan "Deutsche Bahn"ning havo va temir yo'l transportida intermodal tashish xizmatlarini ko'rsatishni nazarda tutuvchi Interlayn kelishuvi kuchga kirdi.

Shuningdek, quyidagi kompaniyalar bilan hamkorlikning joriy shartlari qayta ko'rib chiqildi, jumladan:

- "Hahn Air" va "APG Airlines" kompaniyalari bilan Interlayn kelishuviga hamkorlarga komissiya to'lash qismiga o'zgartirishlar kiritildi;
- "Air Baltic" va "Korean Air" aviakompaniyalari bilan Kod Sher kelishuvlari doirasida o'zaro hisob-kitoblar shartlari qayta ko'rib chiqildi.



36 ta
Interlayn
kelishuvlari

18 ta
Maxsus proreyt
kelishuvlari

8 ta
Kod Sher
kelishuvlari




Aviakompaniyalar bilan hamkorlik

2022-yil yakunlariga ko'ra, "Uzbekistan Airways" va xorijiy aviatashuvchilar o'rtaсидаги амалдаги тижорат келишувлари бо'yича 91 878 нафар yo'lovchi tashilgan, шудан:

- "Uzbekistan Airways" qatnovlarida 68 mingdan ortiq yo'lovchi tashildi (hamkorlar sotuvi)
- hamkorlar qatnovlarida 23 mingdan ortiq yo'lovchi tashildi ("Uzbekistan Airways" sotuvi)

2022-yilda тижорат келишувлари бо'yича сотувлар hajmi 2019-yilgi pandemiya davrididan oldingi ko'rsatkichlarning 63 foizini tashkil etdi.

**"Uzbekistan Airways" va xorijiy aviatashuvchilar
o'rtaсидаги амалдаги тижорат келишувлари бо'yича
tashilgan yo'lovchilar**



Tijorat keliшувлари
bo'yicha
aviatashuvlardan
олинган даромад
247,5 mlrd. so'm



Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish

"UzAirPlus" dasturi individual ishtirokchilar uchun bir necha darajalarni nazarda tutadi:

PREMIUM – boshlang'ich daraja;

SILVER – imtiyozli maqom;

GOLD – imtiyozli maqom.

"UzAirPlus" dasturida 200 mingdan ortiq ishtirokchi ishtirok etadi, ulardan:

PREMIUM – 200 mingdan ortiq ishtirokchi;

SILVER – 2 mingdan ortiq ishtirokchi;

GOLD – 1 mingdan ortiq ishtirokchi.

2022-yilda 4000 dan ortiq imtiyozli chiptalar, 3000 dan ortiq xizmat ko'rsatish klassini oshirish va 35 000 dan ortiq premium bagaj kvitansiyalari rasmiylashtirildi.

Sovrinli ballarini to'plagan va/yoki dasturda ma'lum maqomga ega bo'lgan "UzAirPlus" shaxsiy dasturi ishtirokchilari bo'lgan yo'lovchilarni taqdirlash quyidagi yo'lar bilan amalga oshiriladi:

- sovrin sifatida xizmat ko'rsatish klassini oshirish;
- sovrin chiptasini berish;
- bepul bagaj miqdorini oshirish;
- GOLD maqomiga ega bo'lgan yo'lovchilarga O'zbekiston aeroportlariga kelish/ketish uchun CIP/Business Lounge zallarida, agar aeroportda bunday zallar mavjud bo'lsa, bepul xizmat ko'rsatish huquqini berish.

Bundan tashqari, shaxsiy ishtirokchilarga quyidagi qo'shimcha imtiyozlar beriladi:

- ishtirokchi tomonidan to'plangan va/yoki sotib olingan sovrin ballari bilan qo'shimcha bagaj uchun to'lovnini amalga oshirish;
- kutish ro'yxitida ustuvor bronni tasdiqlash (Gold maqomi egalari uchun);
- qatnovda uzilish holatlari va joylarni me'yordan ortiq sotish bilan bog'liq vaziyatlarda ustuvor xizmat ko'rsatish.





Shuningdek, shaxsiy hisob egalari bo'lgan ishtirokchilar "Family" oilaviy dasturida ishtirok etishlari mumkin. "Family" dasturidagi oilaviy hisob egasi ishtirokchi bo'lgan o'z oilasi a'zolarini o'z hisobiga kiritadi.

"Family" dasturida maqom darajasi mayjud emas. "UzAirPlus" dasturida korporativ ishtirok uchun "**Biznes**" dasturi mavjud. Yuridik shaxs "Biznes" korporativ dasturining ishtirokchisi bo'lishi mumkin. "Biznes" korporativ dasturi ishtirokchisi "UzAirPlus" xizmatiga ariza bilan murojaat qilishi, xodimlardan birini korporativ hisob menejeri etib tayinlashi va korporativ hisobvaraq bo'yicha ball to'plashda ishtirok etadigan xodimlar ro'yxatini taqdim etishi kerak. Korporativ hisob maqom darajasiga ega emas.

The screenshot shows the official website of Uzbekistan Airways (uzairways.com/en). The header includes the airline's logo, navigation links for "Important information", "Manage your flight", "Loyalty", and "About company", and a language switcher for "ENG". A banner at the top right mentions "COVID-19 - current rules and flight schedule". The main headline reads "Traveling with Uzbekistan Airways" and "Buy tickets online and get a 3% discount". Below this is a search bar for "Buying a ticket" with fields for "From", "To", "Select date", "Passengers", and "Payment method", along with a "Buy ticket" button. A "Ticket for points" link is also present. At the bottom, there's a section titled "Special offers" featuring four small images of travel destinations.



“Uzbekistan Airways” o‘z xizmatlari haqida yo’lovchilarning fikrini bilish muhim

“Uzbekistan Airways” mijozlarining xizmatlardan qoniqish darajasini aniqlash va ko’rsatilayotgan xizmatlar sifati darajasiga xolis baho berish maqsadida 2021-yil 14-dekabrdan yo’lovchilar xohish-istiklari maxsus dasturi amalga kiritildi.

Dasturning asosiy maqsadi xizmat ko’rsatishning barcha bosqichlarida “Uzbekistan Airways” yo’lovchilarga ko’rsatilgan xizmatlar haqida respondentlarning fikrlarini o’rganish, shuningdek, aniqlangan nomuvonfigliklarni bartaraf etishdan iborat.

Dasturda turli mamlakatlar: O’zbekiston, Rossiya, Belarus, Ukraina, Latviya, Qozog’iston, Tojikiston, Ozarbayjon, Pokiston, Hindiston, BAA, Isroil, Turkiya, Gruziya, Tailand, Singapur, Qatar, Koreya, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Ispaniya, Italiya, Belgiya, Vengriya, Amerika va Kanada fuqarolari ishtirok etdi.

Fikr-mulohazalar va takliflar tegishli xizmatlar bilan zudlik bilan ishlab chiqildi. “Uzbekistan Airways” har oyda barcha fikr-mulohazalar va takliflarni tahsil qilib bordi.

Respondentlarning qoniqishlari jadvali uch daraja bo‘yicha tuzildi va dastur ishtirokchilari bilan individual yozishmalar olib borildi.

Dastur joriy elilishidan 11 oy o’tgach yo’lovchilar tomonidan xizmat ko’rsatish sifati sezilarli darajada yaxshilanganligi, xususan, bortkuzatuvchilarining xushmuomalaligi va tashqi ko’rinishi, yangi va zamonaiviy avialaynerlar, havo kemasi bortida yangilangan media-kontent, aeroportda chekish xonasi tashkil etilgani, aviakompaniyaning veb-saytida va mobil ilovasida qulay chipta bron qilish imkoniyati kabi jihatlar alohida e’tirof etildi. Shuningdek, aviakompaniyaning qo’shimcha xizmatlari taniqliligi bir necha bor qayd etilgan.

**Biz “Uzbekistan Airways”ni
tanlagan har bir yo’lovchi
parvozdan a’lo taassurot
olishiga hamda
aviakompaniyamizning o’ziga
xos xususiyati bo’lgan
g’amxo’rligimiz va
mehmondo’stligimizni his
etishiga intilamiz.**



Dastur
ishtirokchilari

— 28 ta
mamlakat
fuqarolari

Tez-tez
uchadigan
yo’lovchi va
dastur
ishtirokchisining
sharhi : “bu
oylardagi
barcha
e’tirozlar
eshitildi”.



"Uzbekistan Airways" xizmat ko'rsatish darajasi va xodimlarining mehnat sharoitlarini yaxshilash maqsadida o'z operatsion jarayonlari doirasida turli innovatsion imkoniyatlarni baholamoqda.

"Uzbekistan Airways" korporativ faoliyatini transformatsiya qilish jarayonida bo'lib, innovatsiyalardan foydalanish uning ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Butun dunyodan ishlab chiqilgan dastur orqali to'plangan fikr-mulohazalar yrdamida "Uzbekistan Airways" o'z faoliyatining qiymatini oshirishga intildi. Shuningdek, kompaniyamiz dasturlar, rasmiy ijtimoiy tarmoqlar sahifalari va telefon orqali xodimlarimizdan olingan ixtiyoriy xabarlardan unumli foydalanadi.

2022-yil davomida **164 ta ixtiyoriy xabar** kelib tushdi. 99% hollarda ixtiyoriy hisobotlar Parvoz xizmati departamenti va Bortkuzatuvchilar xizmatidan kelib tushgan. Xabarlarda quyidagi asosiy savollar aks etgan::


- yo'lovchilar tomonidan havo kemasi bortida katta o'lchamdagи qo'l yukini olib kirish;
- "Toshkent" aeroportida yer usti xizmatlarini ko'rsatishga oid savollar;
- ikki kishiga bitta bortga chiqish talonini berish holatlari;
- ekipaj a'zolariga havo kemalarida dam olish uchun joy taqdim etilmaganligi;
- A320 HK AHM-560 markazlashtirish indeksining nomuvofiqligi (yuklanadigan taomlar);
- yo'lovchilarning havo kemasiga chiqish tartibiga rioya qilmaslik.

Ixtiyoriy xabarlar tizimining samarali ishlashi va qayta aloqani ta'minlash uchun aviakompaniya quyidagi aloqa kanallaridan foydalanadi:

- ijtimoiy tarmoqlar;
- elektron pochta;
- ixtiyoriy xabarlar uchun maxsus quti;
- telefon aloqasi.

Aloqa kanallari orgali kelib tushgan ixtiyoriy xabarlar quyidagicha taqsimlandi:

"Uzbekistan Airways" xodimlarining ixtiyoriy xabarlari



"Yer usti xizmatlarini ko'rsatish" yo'nalishi bo'yicha "Yo'lovchining lozim darajada tekshirilmagan yo'l hujjatlari" ko'rsatkichi 2022-yilning ikkinchi yarmida ixtiyoriy xabarlar tufayli "maqbul" darajagacha pasaygan



Parvozga layoqatlilikni ta'minlash



Zamonaviy davlat transport infratuzilmasining eng harakatchan tarkibiy qismi sifatida havo transportini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

"Uzbekistan Airways"ning parvozga layoqatlilikni ta'minlovchi jamoasi havo kemalarining parvozga layoqatlilik talablarini va xavfsizlik choralariga muvofiqligini muntazam tekshirib boradi.

Bunda:

- Ta'mirlashning asosiy bazaviy shakllarini amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rishni ta'minlash uchun bo'linmalar ishini rejalshtirish, nazorat qilish va muvofiqlashtirish;
- Ta'mirlash, yuvish, bo'yash, texnik xizmat ko'rsatish, butlovchi qismlarni ishlab chiqarish, samolyot kabinasiga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha subpudrat ishlarga buyurtmalarni joylashtirish va bajarish uchun tezkor topshiriqlar va xizmat xatlarini tayyorlash;
- Aviatsiya texnikasini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish jarayonida bajariladigan funksiyalarning "Sifat bo'yicha qo'llanma" va MSM talablariga muvofiqligini ta'minlovchi vosita sifatida sifat tizimini ish holatida saqlash;
- Aviatsiya hodisalarini tekshirish natijalari bo'yicha ichki audit, sertifikatlashtirish va tekshirish jarayonida parvozlar xavfsizligi masalalari bo'yicha aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo'yicha tuzatish choralarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish choralarini ko'rish.
- Parvozga layoqatlilikni ta'minlash departamentining rejalariga muvofiq parvozlar xavfsizligi bo'yicha tadbirlar va o'z bo'linmasida barcha turdag'i tekshiruv va ko'rsatmalar materiallari bo'yicha tavsiyalarning bajarilishini tashkil etish;
- Aviatsiya texnikasini ishlab chiqaruvchi korxonalardan (keying o'rinnlarda - AT) va Aviatsiya ma'muriyatlaridan (AOT, AOW, SIL, SB, ASB, AD va boshqalar) kelib tushgan texnik hujjatlarni qayta ishslash;



- G'arbda ishlab chiqarilgan samolyotlarda bajariladigan barcha turdag'i ishlarni uchun yangi jarayonlar, ishchi hujjatlarni ishlab chiqish va joriy etish. Ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish va takomillashtirish, aviatsiya texnikasiga texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini (keyingi o'rinnlarda - TX) boshqarish va amalga oshirishda bevosita ishtirot etish;
- Murakkab va takrorlanuvchi nuqsonlarni/buzilishlarni bartaraf etishda ishlab chiqarish bo'linmalarini muhandislik jihatdan kuzatib borish va amaliy yordam ko'rsatish;
- Modifikatsiyalash (qo'shimcha) ishlarni bajarish, nuqsonlarni bartaraf etish, detallar tayyorlash va tegishli konstrukturlik ishlarni amalga oshirish zarurati bilan bog'liq bo'lgan, Ishlab chiqaruvchi va Aviatsiya ma'muriyatining tasdiqlangan ma'lumotlaridan jiddiy og'ishlarlar bo'yichayicha texnik yechimlarni ishlab chiqish va tasdiqlash, shuningdek, barcha zarur ishchi va texnologik hujjatlarni ishlab chiqish. Ishlab chiqilgan hujjatlar va qabul qilingan qarorlarning Ishlab chiqaruvchining tavsiyalari va tasdiqlangan tartib-taomillarga muvofiqligini ta'minlash.
- Tasdiqlangan ma'lumotlar asosida havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, inventar, materiallar, ehtiyoj qismlari va hujjatarning tarkibi va talablarini aniqlash;
- "Uzbekistan Airways" tomonidan ekspluatatsiya qilinadigan samolyotlarning uchishga yaroqliligini saqlab turilishi samolyot ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning Aviatsiya ma'muriyatları, samolyotlarni ro'yxatdan o'tkazgan mamlakatning Aviatsiya ma'muriyati talablariga, IOSA standartlariga, shuningdek, tasdiqlangan uchishga yaroqliligini saqlab turish tartibotlariga muvofiq amalga oshirilishini nazorat qilishni tashkil etish asosiy vazifalar hisoblanadi.



Parvozlarni amalga oshirish



“Uzbekistan Airways” uchuvchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularning ish vaqtini samarali rejalashtirish bo'yicha doimiy ish olib bormoqda. Uchuvchilar malakasini lozim darajada saqlab turish O'quv-mashq markazining to'liq jihozlangan zamonaviy Airbus A-320, Boeing-757/767 samolyotlari trenajyorlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Boeing-787 havo kemasiga uchuvchilari tayyorgarlikni dunyoning yetakchi o'quv-mashq markazlarida o'taydilar.

Aviakompaniya “Uzaviatsiya” agentligi tomonidan tasdiqlangan AR-OPS-005 ekipaj a'zolarining ish vaqtini va dam olish vaqtini tartibga solish qoidalariga amal qiladi.

“Uzbekistan Airways” yirik aviakompaniyalarning yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsiyalari va ilg'or tajribalarini diqqat bilan kuzatib boradi. O'zbekiston tarixi va uning ko'p millatliligini inobatga oladigan bo'lsak, bizning bortkuzatuvchilarimiz ko'p madaniyatli merosni ifodalaydi, bu esa “Uzbekistan Airways” bortkuzatuvchilarining bir nechta tillarni bilishi tufayli xizmat ko'rsatish darajasini oshirish imkonini beradi.

“Uzbekistan Airways” 2023-yildan boshlab bortkuzatuvchilarni ishga qabul qilish bo'yicha keng ko'lamli dasturni amalga oshirishni boshlaydi.

Dasturiy mahsulot foydalanishga topshirilib, uning yordamida ekipaj so'rovlarini bo'yicha samolyot bortiga parvoz eshelonidagi shamol, havo kemasini markazlashtirish, parvoz yo'nalishi to'g'risidagi ma'lumotlarni avtomatik yuborish shablonlari qo'shildi va sozlandi, shuningdek parvozdagi havo kemalari ekipajlari bilan xabar almashish funksiyasi sozlandi;

2022-yil avgust oyidan boshlab samolyotlar ekipajlari uchun ob-havo ma'lumotlarining to'liq paketini taqdim etishga o'tildi, bu esa xarajatlarni oyiga 100 mln so'mga qisqartirish imkonini berdi.

Parvozlarni rejalashtirish tizimining dasturiy ta'minotidan eng yangi dasturiy ta'minotga global o'tish amalga oshirildi. Dasturiy mahsulotlar sinovdan o'tkazildi va barcha manfaatdor mutaxassislar xorijda o'qitildi.



Korporativ boshqaruv va axborot texnologiyalari

Aviaysiyadagi operatsiyalar zanjiridagi har bir bo'g'in soha xavfsizligi va samaradorligi uchun juda muhimdir.

AQSh Federal Aviatsiya ma'muriyati tomonidan e'lon qilingan hisobotlarga ko'ra, samolyotlarga texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq muammolarning 80 foizi inson omili tufayli sodir bo'ladi, bu esa parvozning kechikishi, uning shikastlanishi, jarohatlar, halokat va baxtsiz hodisalarga olib keladi. Aviatsiyani raqamlashtirish inson xatolarining xavfini va sohadagi ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishi hamda potentsial ravishda hayotlarni saqlab qolishi mumkin. Oxir oqibat, raqamlilashtirish mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasini yaxshilash imkononi beradi. "Uzbekistan Airways" xavfsizlik va mijozlar mammuniyatiga bog'liq.

Samolyotlarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni boshqarish tizimi

Parvozlar boshqaruvi markazi va uchuvchilar faoliyatini raqamlashtirish

"Uzbekistan Airways"ni raqamlashtirish

Korxona IT infratuzilmasi va resurslarini boshqarish tizimi

Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish

Barcha jarayonlarda samaradorlik va xavfsizlikni oshirish "Uzbekistan Airways" obro'sini oshirishga yordam beradi, bu esa ko'plab mijozlarni jaib qilish va saqlab qolish imkonini beradi.

Shu maqsadda "Uzbekistan Airways" doimiy ravishda aviatsiya bozori uchun maxsus ishlab chiqilgan ilg'or texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha zarur choralarни ko'radi.

2022-yildan
boshib

5 ta
yirik
IT- loyiha
amalga
oshirilmoqda



1. Yo'lovchi tashuvlardan tushgan daromadlarni hisobga olish

2021-yil noyabr oyida daromadlarni hisobga olish tizimi joriy etildi. 2022-yil yanvar oyidan boshlab test sinovlari o'tkazilgach, tizim ishlab chiqarishga tatbiq etildi.

Ushbu tizim real vaqt rejimida barcha kanallar bo'yicha sotuvlarni hamda aviakompaniya tomonidan amalga oshirilayotgan barcha yo'lovchi qatnovlarini ro'yxatga olish, parvoz hujjatlaridan foydalanishni hisobga olish va nazorat qilish, parvoz hujjatlarini sotish va ulardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish, IATA va aviakompaniya qoidalariiga muvofiq har bir chiptalar va xizmatlar segmenti uchun narx belgilash, xorijiy aviakompaniyalar bilan interlayn hisob-kitoblarni amalga oshirish, aviakompaniyaning daromadlari to'g'risida tezkor ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

Hozirda xorijiy aviakompaniyalar bilan o'zaro hisob-kitoblar joriy qilingan tizimda amalga oshirilmoqda. Bu hisob-kitob qilish jarayonini tezlashtirish imkonini berdi. Parvoz hujjatlarining deyarli 100 foizi avtomatik tarzda hisoblanishini hisobga olsak, bu aviachiptalarni hisoblashda qo'lida yo'l qo'yiladigan xatolar sonini kamaytirish imkonini beradi.

2. Tariflar va narx belgilashni avtomatlashтирish

"Uzbekistan Airways" AJ tomonidan 2022-yil davomida tariflar setkasini optimallashtirish bo'yicha uzlusiz ishlar amalga oshirildi, bu aviachiptalar narxlarini yanada moslashuvchan va hamyonbop qildi.

Tarif setkasiga qaytarilmaydigan tariflarning qo'shimcha turlari (Y-, B-, M-), shuningdek, barcha xalqaro yo'nalishlarda ekonom-klassda "P" va biznes-klassda "I" arzonroq bronlash klasslari qo'shildi.

Mahalliy yo'nalishlar tarif setkasiga O/S/U/L klass tariflari qo'shildi, barchas ekonom-klass uchun bagajsiz, qaytarilmaydigan tariflar kiritildi, bu yo'lovchiga yanada hamyonbop narxda chipta sotib olish imkonini berdi.

"Amadeus" bronlash tizimining joriy etilishi aviachiptalarni qayta rasmiylashtirish va qaytarish jarayonlarini avtomatlashтирish imkonini berib, agentlar uchun chiptalarni qaytarish va qayta rasmiylashtirish tartib-qoidalarni sezilarli darajada soddalashtirdi, shuningdek, ushbu jarayonlarga sarflangan vaqtini minimallashtiradi.

Har bir yo'nalish bo'yicha narxni shakllantirish va muayyan klassga bron qilish imkonini to'g'risida qaror qabul qilish uchun sotuvlarga oid tarixiy ma'lumotlarga asoslangan holda talabni prognoz qilishga yordam beruvchi dastur joriy etildi. Bo'lim ishining bir qismi avtomatlashтирildi, bu esa talab, sotuvlar va bozordagi o'zgarishlarga tezkor javob qaytarish imkonini berdi.

Shuningdek, liniyada yangi raqobatchilar paydo bo'lishiga qarab, monitoring tizimiga yangi marshrutlar qo'shiladigan dastur joriy etildi. Ushbu dastur raqobatchilar qatnovlarida tashuv narxi to'g'risidagi ma'umotlarni yig'ish jarayonini avtomatlashтирishga yordam beradi.

"Uzbekistan Airways" kompaniyalar guruhi o'z faoliyatini eng yaxshi servis xizmatlarini taqdim etishga intillgan va xodimlariga g'amxo'rlik ko'rsatgan holda amalga oshiradi.



3. Parvoz ma'lumotini o'qish

Parvoz ma'lumotlarini o'qish va tahlil qilish tartibini takomillashtirish maqsadida "Uzbekistan Airways" AJ tomonidan ekspluatatsiya qilinadigan barcha rusumdagi havo kemalarini obyektiv nazorat qilish vositalarini o'qish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotning yangilangan versiyasi xarid qilindi.

Barcha mutaxassislar, uchuvchi-inspektorlar, shuningdek, har bir uchuvchilar otryadi uchuvchilar tarkibi va "UAT" MChJ dvigatellar guruhi vakillari joriy etilgan dasturiy ta'minotning yangi versiyalari bilan ishlash bo'yicha o'qitildi.

4. Uchuvchilar tarkibi tomonidan navigatsiya ma'lumotlarini olish jarayonini avtomatlashtirish

"Uzbekistan Airways" AJ tomonidan 2022-yilda parvoz rejalarini shakllantirish, havo kemalari yo'naliishlari bo'ylab va aeroportlarda ob-havo ma'lumotlarini taqdim etish hamda uchuvchilar tarkibi uchun standartlashtirilgan "NOTAM" xabarnomalarini olish dasturi joriy etildi.

Pilatus PC-24 havo kemasining uchish va qo'nish xususiyatlarini hisob-kitoblar bilan to'liq ta'minlash uchun maxsus dastur joriy etildi.

2022-yildan boshlab Pilatus PC-24 samolyoti uchun navigatsiya ma'lumotlar bazasi, elektron sxemalar va xaritalarni ta'minlaydigan navigatsiya ma'lumotlarining integratsiyalashgan xizmatlaridan foydalanadi.

5. Yerda xizmat ko'rsatish ishlari samaradorligini oshirish

"Uzbekistan Airways" AJ 2022-yil 5-avgustdan boshlab, ixtisoslashtirilgan xizmatdan foydalangan holda, O'zbekistondagi aeroportlaridan amalga oshiriladigan qatnovlarini meteorologik prognozlar bilan o'zi ta'minlashga o'tdi, bu esa 2022-yil davomida aviakompaniya xarajatlarini 495 mln. so'mga qisqartirish imkonini berdi.

Shuningdek, 2022-yil dekabr oyida "Uzbekistan Airways" tomonidan qatnov hujjatlari bilan ta'minlash bo'yicha kelishuv tuzildi, bu esa aviakompaniya xarajatlarini 240 mln. so'mga qisqartirish imkonini berdi. 2022-yil iyul oyidan boshlab markazlashtirilgan hisob-kitoblarga o'tish parvozlar xavfsizligi darajasini oshirish imkonini beradi.

6. O'z ta'lim platformasi

Aviakompaniya tomonidan xodimlar va agentlarni bron qilish va sotishning yangi tizimi bilan ishlashga tezkorlik bilan o'qitish uchun masofaviy ta'lim tizimi (MTT) yaratildi va foydalanishga topshirildi. MTT o'quv kurslarini e'lon qilish, o'quv jarayoni ishtiroychilari o'rtasida interaktiv o'zarobor aloqani ta'minlash, individual va guruhli o'quv faoliyatini tashkil etish, nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, o'quv materiallarini o'rganish va amaliy topshiriqlarni bajarishda foydalanuvchilar tomonidan olingan bilimlarni baholash markazi hisoblanadi. Tizimdan aviakompaniya mutaxassislarini rejali attestatsiyadan o'tkazish uchun ham foydalanish mumkin. MTT aviakompaniya xodimlariga va uning agentlariga o'zlarini uchun qulay vaqtida ish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish imkonini beradi, bu esa an'anaviy auditoriya ta'lmini tashkil etish hamda hududdan uzoq bo'lgan xodimlar va agentlarni o'qitish bilan bog'liq ham moliyaviy, ham vaqt xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi.

Bugungi kunga qadar aviakompaniyaning 1320 nafar xodimi va agenti masofaviy ta'lim va o'zarobor aloqa tizimidan foydalanuvchi hisoblanib, foydalanuvchilar soni doimiy ravishda ortib bormoqda.



Bizning xodimlarimiz

2022-yil yakunlari bo'yicha "Uzbekistan Airways" AJda 4,5 mingdan ortiq xodim ishlaydi. Ularning 56 foizini erkaklar, 44 foizini ayollar tashkil qiladi. Xodimlarning o'rtacha yoshi 36 yosh.

"Uzbekistan Airways" kadrlar siyosati o'z vazifalarini "Uzbekistan Airways" strategik rejalarini va maqsadlariga muvofiq samarali bajarishga qodir, kasbiy va odob-axloq qoidalariga amal qiladigan malakali xodimlarni ishga qabul qilishdan iborat. Kadrlar siyosati inson resurslarini rejalashtirish, korporativ madaniyat va xabardorlikni oshirish, qayta aloqa tizimi, o'qitish va rivojlantirish, kadrlar masalalari, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar, xodimlarning mammun bo'lishini ta'minlash kabi asosiy sohalarni qamrab oladi.





Doimo o'z ustida ishlash va malaka oshirish

Kadrlar malakasini oshirish, tayyorlash va qayta tayyorlash ishlari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlariga, Uzbekistan Airways" AJ me'yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Aviatsiya xodimlarining kasbiy malakasini oshirish belgilangan siklga muvofiq doimiy ravishda amalga oshiriladi. O'qitish jarayonlari O'quvmashq markazida, "Uzbekistan airways sales" o'quv bo'limida, yaqin va uzoq xorijning sertifikatlangan o'quv markazlarida, SMSITida, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Respublika biznes va menejment olyi maktabida, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Respublika Bandlik va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi Markaziy davlat arxivida, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Yong'in xavfsizligi institutida, Turin politexnika universitetida, Respublika shoshilinch tibbiy yordam o'quv markazida, Adliya vazirligida, Fan-texnika markazida, "Kontexnazorat o'quv" Davlat inspeksiyasining "Sanoatgeokontexnazorat" ilmiy-texnik markazida, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazida, shuningdek, bevosita "Uzbekistan Airways" AJ tarkibiga kiruvchi korxonalarda amalga oshiriladi.

Uchuvchilar, dispetcherlar, muhandis-texnik tarkib, bortkuzatuvchilar, tashuvalar xizmati xodimlarining malakasini oshirish, tayyorlash va qayta tayyorlash ishlari O'quv-mashq markazida olib boriladi. Joriy yilning o'n ikki mobaynida 6 mingdan ortiq aviakompaniya mutaxassislari malaka oshirish va tayyorlov kurslarida o'qitildi va sinovdan o'tkazildi.

Joriy yilning o'n ikki oyi mobaynida "Uzbekistan Airways" kompaniyalar guruhi bo'yicha jami 6 mingdan ortiq mutaxassis o'qitildi.

Mehnat muhofazasi


Ishlab chiqarishda mehnatni muhofaza qilish tadbirlariga katta mablag' yo'naltiriladi. Mehnat muhofazasi bo'limi tomonidan mutazam ravishda xodimlar texnika xavfsizligi asoslariga o'qitiladi, ichki yo'riqnomalar ishlab chiqiladi, ularning bajarilishi nazorat qilinadi. Mehnat muhofazasi bo'limi aviakompaniya xodimlarini dastlabki va davriy tibbiy ko'rklarga tayyorlash va o'tkazishni nazorat qiladi. "Uzbekistan Airways" AJ tarkibiy bo'linmalarida xodimlarni mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitish va bilimlarini sinovdan o'tkazish ishlari tashkil etilgan. "Uzbekistan Airways" AJ LMS platformasida mehnat muhofazasi bo'yicha vakillarni, shuningdek aviakompaniya uchuvchilar tarkibini masofaviy o'qitish uchun materiallar tayyorlandi va parvozlarni ta'minlash hamda slotlar va havo kemalari harakatini boshqarish tizimiga joylashtirildi. Kompyuterda ishlaydigan xodimlarni masofaviy o'qitish uchun materiallar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va me'yoriy-huquqiy hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda yangilandi. Xodimlar ISO 9001:2015 xalqaro standarti talablariga muvofiq mutaxassislar Sifat menejmenti tizimi bo'yicha boshlang'ich tayyorlov kursi dasturi bo'yicha o'qitildi.






“Uzbekistan Airways”ning barqaror rivojlanishi

Barqarorlikni o‘z strategiyasining muhim jihatni sifatida qabul qilgan ko‘plab aviakompaniyalar singari, biz, “Uzbekistan Airways”, sayyoramiz kelajagiga manfaatdor tomon sifatida jiddiy qaraymiz va iqlimga ta’sirimizni kamaytirish, ya’ni karbonat angidrid gazi chiqindilarini kamaytirish tarafdorimiz. Shu bilan birga, biz kengroq ma’noda barqarorlik haqida ham o‘ylaymiz.



*Sintetik dizel yoqilg‘isi



“Uzbekistan Airways” o‘z havo kemalariga GTL* yoqilg‘isini quyadi



2019-yilda 332 339 tonna avia yonilg‘i-moylash materiallari sarflangan bo‘lsa, 1 parvoz soatiga kerosin sarfi 3,56 tonnani tashkil etdi.
2022-yilda 340 405 tonna avia yonilg‘i-moylash materiallari sarflangan bo‘lsa, kerosin iste’moli 1 parvoz soatida 2,96 tonnani tashkil etdi.



Biz CO₂ chiqindilarini O'zbekiston Respublikasi, Yevropa Ittifoqi va Buyuk Britaniya talablariga muvofiq hisobi, monitoringi va hisobotini olib boramiz.

"Uzbekistan Airways" barcha zarur ma'lumotlarni CORSIA (Standartlar va ularni qo'llash bo'yicha tavsiyalar) talablariga muvofiq taqdim etadi.

CORSIA

"Uzbekistan Airways" kompaniyalar guruhi rahbariyatida ayollar 7 foizni tashkil etadi

Biz 2023-yildan boshlab "Uzbekistan Airways" HK bortida ko'p marta ishlataladigan idishlardan foydalanamiz.



“Uzbekistan Airways” O‘zbekiston Respublikasining juda ko‘p shaharlariiga muntazam qatnovlarni amalga oshiradi, bu esa O‘zbekiston Respublikasining turli hududlariga transport qatnovini ta’minlab, respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Xayriya va ijtimoiy ahamiyatga ega aksiyalar

“Uzbekistan Airways” tomonidan amalga oshirilayotgan “Ilk parvozim” ijtimoiy loyihasi “Temir daftar”ga kirgan xotin-qizlarga hayot tashvishlaridan xoli qilgan holda bir kunlik sayohat qilish imkonini yaratishga qaratilgan. Loyiha doirasida Toshkent, Sirdaryo va Namangan viloyatlari ayollari uchun mamlakatimizning mashhur shaharlari va ziyoratgohlariga sayohatlar tashkil etildi. Ayollar Xiva, Buxoro, Termiz va Toshkent shaharlariiga sayohat qilish barobarida o‘z orzusi – samolyotda uchish imkoniyatini ro‘yobga chiqardilar.

9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan “Uzbekistan Airways” volontor xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Aviatsiya xodimlari kasaba uyushmasi bilan hamkorlikda ikkinchi jahon urushi va mehnat fronti faxriylari ahvoldidan xabar olib, sovg‘alar topshirdi. Aviakompaniya tomonidan pul mukofoti shaklida moddiy yordam ko’rsatildi.

Imtiyozli parvozlarni taqdim etish

Aviakompaniya ikkinchi jahon urushi faxriylari va ularga tenglashtirilgan shaxslarga mahalliy yo‘nalishlarga va MDH davlatlariga 1072ta aviachipta taqdim etdi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati hududida istiqomat qiluvchi pensionerlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab qatnovlarga 9 584ta imtiyozli aviachiptalar taqdim etildi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘lgan pensionerlar uchun aviakompaniya “Uzbekistan Airways” barcha yo‘nalishlarida tarifning 25 foizi miqdorida chegirma taqdim etadi.

Moddiy yordam ko’rsatish

Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan “Uzbekistan Airways” imkoniyati cheklangan farzandlari bo‘lgan xodimlarga 2 000 000 so‘m miqdorida yordam ko’rsatdi. Aviakompaniya, shuningdek, ishlamaydigan pensionerlarga g‘amxo‘rlik qilib, yordam berish uchun muhim sanalar munosabati bilan pul mablag‘lari ajratadi.





Uchuvchilar tarkibi uchun ijtimoiy imtiyozlar

Aviakompaniya nafaqat o'z xodimlarining malakasini oshirishga, balki ularning salomatligini mustahkamlashga ham g'amho'rlik qiladi, har yili xodimlarga sanatoriy-kurorttlarda davolanishlari uchun imkoniyat yaratadi

Kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatish

1-iyun – Xalqaro bolalar kuni munosabati bilan "Uzbekistan Airways" volontyor xodimlari Xalqobod mahallasingin kam ta'minlangan oilalari farzandlarini ko'rgani borib, sovg'a-salom va oziq-ovqat mahsulotlari taqdim etdilar.

Atrof-muhitni muhofaza qilish

Respublika shaharlарини ко'камзорлаштириш бо'yicha milliy loyiha doirasida "Uzbekistan Airways" xodimlari Boshqaruv raisi birinchi o'rinosari boshchiligidagi Toshkent shahridagi tumanlardan birida ko'chat o'tqazish tadbirida ishtirok etdi.

Milliy sportni qo'llab-quvvatlash

"Uzbekistan Airways" 2022-yildan boshlab olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha terma jamoalar a'zolariga, shuningdek, Universiada a'zolari va ijodiy jamoasiga ichki qatnovlarda 20 foizlik chegirma taqdim etadi.

"Besh tashabbus olimpiadasi" ishtirokchilari va ishchi guruhi uchun aviakompaniya tomonidan ichki qatnovlarga 15 foizlik chegirmalar taqdim etildi.

Musiqa festivallarini qo'llab-quvvatlash

Aviakompaniya "Stixiya" elektron musiqa festivali sayohatchilari uchun Toshkent – Nukus – Toshkent yo'nalishida chegirmalar taqdim etdi.

Xorij klinikalariga davolanish uchun ketayotgan yo'lovchilarga

Bemorlar va ularni kuzatuvchi shaxslarga 67 ta aviacipta taqdim etildi hamda Toshkent-Dehli-Toshkent, Toshkent-Frankfurt-Toshkent yo'nalishlari bo'yicha yo'nalishning qaytish uchastkasiga bir martalik bepul qayta bron qilish imkoniyati taqdim etildi.

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash

"O'zbekiston yoshlari forumi" ishtirokchilari uchun ichki qatnovlarga maxsus chegirmalar taqdim etildi.





Sifat bo'yicha talablarga muvofiqlik monitoringi

"Uzbekistan Airways" o'z faoliyatini rejalashtirish va boshqarishda yo'llovchiga, mijozga, xodimlarga yo'naltirilgan yondashuv va ekologik tozalikka rioxay qilish orqali yuqori sifatni saqlab qoladi. "Uzbekistan Airways" o'zining barcha jarayonlarini doimiy ravishda takomillashtirib, har bosqichda barcha mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmat sifatini oshirishga intiladi. Shu munosabat bilan "Uzbekistan Airways" jahon miyosida qabul qilingan muvofiqlik tizimidan foydalangan holda, ayniqsa parvozlar xavfsizligi ta'minlash qismida, sifat va xavfsizlik standartlarini eng yuqori darajada saqlaydi.

2022-yilning 17-yanvaridan 21-yanvarigacha aviakompaniyada IATA (IOSA) ekspluatatsiya xavfsizligi standartlari talablariga muvofiqlik yuzasidan navbatdagi audit o'tkazildi. Audit natijalariga ko'ra, "Uzbekistan Airways" IOSA sertifikatining amal qilish muddati 2024-yil 17-maygacha uzaytirildi. 2022-yilda "Uzbekistan Airways"da ISO 37001 "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi" xalqaro standarti talablarini joriy etish bo'yicha ishlar boshlandi. "Uzbekistan Airways" AJ Boshqaruvi tomonidan aviakompaniyada ISO 9001 standarti talablarini joriy etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Joriy etish muddati 2023-yil dekabr oyiga rejalashtirilgan.

Shuningdek, Yillik ichki auditorlar dasturiga muvofiqlik, 2022-yilda Parvozlar xavfsizligi va sifatini ta'minlash boshqarmasi ichki auditorlari va inspektor tarkibi tomonidan Guruhning 14 ta tarkibiy bo'linmalarida auditorlik tekshiruvlari o'tkazildi.

Jami **104** ta nomuvofiqlik aniqlanib, faoliyatni yaxshilash bo'yicha **36** ta tavsiyalar berildi. Barcha nomuvofiqliklar II- va III-toifalarga bo'linadi. I toifali 4 ta nomuvofiqlik aniqlandi. Barcha nomuvofiqliklar II va III toifalarga bo'linadi. I toifali 4 ta nomuvofiqlik aniqlandi. 2022-yil aprel oyida aviakompaniya rahbariyati tomonidan muhandis-texnik tarkibning (MTT) samolyot bortida parvozlarini to'xtatish bo'yicha qaror qabul qilindi. Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni olib borishda uchuvchilar tarkibini qo'llab-quvvatlash va maslahat berish uchun Maintenance control center guruhi tuzildi. Aviakompaniya uchuvchilar tarkibi uchun "Ekspluatatsiya qilinadigan barcha turdag'i havo kemalari bo'yicha tranzit aeroportlarida parvoz oldi tayyorgarlik va havo kemalarida favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo'yicha tavsiyalar" ishlab chiqildi.

"Uzbekistan Airways" auditorlari tomonidan 2022-yil davomida texnik xizmat ko'rsatuvchi pudrat tashkilotlarida sakkizta audit o'tkazildi. Auditlar ikki shaklda, masofadan turib va joyida o'tkazildi. Auditlar natijalari texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha pudrat tashkilotlarining sertifikatlarini tan olish uchun "O'zaviatsiya" agentligiga yuborildi.

IATA xalqaro tashkiloti 2022-yil 24-dekabrda 2023-yil 1-sentabrdan amal qiladigan IOSA standartlarining 16-tahririni chop etdi. Yangi talablar "Uzbekistan Airways" me'yoriy hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish uchun aviakompaniyaning manfaatdor tarkibiy bo'linmalariga yuborildi.



Guruh
bo'linmalarini va
kompaniyalarida

14 ta
audit


Texnik xizmat
ko'rsatish bo'yicha
pudtar
tashkilotlarida

8 ta
audit



2022-yilda samolyotlarda umumiy parvoz soati 100 ming soatni (28 140 ta qatnov), 2021-yilda esa 60 ming soatni (17 741ta qatnov) tashkil etgan. COVID-19 pandemiyasi sababli avval yopilgan yo'nalishlarning qayta tiklanishi, Rossiya Federatsiyasiga yangi qatnolarning ochilishi, charter yo'lovchi va yuk qatnolari geografiyasining kengayishi hamda beshta yangi A321neo havo kemasi olingani parvoz soatlarining 38 foizga oshishiga sabab bo'ldi.
Barcha qatnovlar bo'yicha obyektiv nazorat vositalari o'qib chiqildi. Har qanday og'ishlar aniqlanganda, tuzatish/oldini olish choralar ko'rildi.

"Uzbekistan Airways" parvoz soatlari





Xavflarni boshqarish

“Uzbekistan Airways” AJ havo transporti sohasi va aviakompaniyalar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar bilan bog'liq umumiy xavflarga duch keladi, shu bois xavflarni aniqlash, tahsil qilish, kuzatish, boshqarish va nazorat qilish tizimiga egadir.

Xavflar strategik, operatsion, komplayens va moliyaviy xavflarga ajratiladi.

Xavflar landshafti dinamik bo'lib, o'zgarishi mumkinligi sababli, xavflarni aniqlash mas'ul departamentlar uchun doimiy vazifa hisoblanadi.

Mas'ul departamentlar va xizmatlar xavfli holatlar qay darajada prognoz natijalariga kiritilganligini, prognozda belgilangan yaxshiroq yoki yomonroq natijaga erishish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yoki xavflar qay darajada mavjudligini baholaydi.

Xatarlarni boshqarish va monitoring qilish uchun nazorat vositalarini ishlab chiqishga xizmat qiluvchi, belgilangan muddat, mas'uliyat va vaqt oraliqiga ega bo'lgan aniq belgilangan harakatlarni ko'zda tutuvchi zarur harakatlar amalga oshiriladi.

Parvozlar xavfsizligi bilan bog'liq xavflarni boshqarish

Parvozlar xavfsizligiga oid xatarlarni boshqarish uchun 2022-yil davomida ichki va ikkinchi tomon auditini o'tkazish hamda parvozlar xavfsizligi xavflarini boshqarish bo'yicha dasturiy ta'minotni joriy etish bo'yicha ishlar amalga oshirildi.

Pul oqimlari bilan bog'liq xavflarni boshqarish


“Uzbekistan Airways” pul oqimlari xavfini samarali boshqarish uchun oylik, choraklik va yillik asosda kutilayotgan pul oqimlarini prognoz qiladi. Bundan tashqari, har osha korporativ faoliyatning uzluksizligi uchun zarur bo'lgan minimal mablag'lar miqdori belgilanadi. Prognoz qilingan chegaradan pastga tushishning oldini olish uchun barcha zarur choralar ko'riladi, bu esa pul oqimlari bilan bog'liq xavflarni samarali boshqarish imkonini beradi.



Valyuta ayrboshlash bilan bog'liq xavflarni boshqarish

Valyuta ayrboshlash bilan bog'liq asosiy xavflar aviayoniq'i va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari, shuningdek, AQSh dollarri dinamikasiga (o'zgarishiga) bog'langan lizing to'lovlariga oid.

Valyuta xavflarini kamaytirish maqsadida “Uzbekistan Airways” daromad va xarajatlar valyutalari o'rtaсидаги muvozanatni ta'minlash uchun aviakompaniya tomonidan imzolanadigan shartnomalar valyutasini nazorat qiladi. Aviakompaniya eksport va import shartnomalarini tuzishda tranzaksiya xavflarini boshqarishning samarali usullarini qo'llaydi.





Korrupsiyaga qarshi kurash va komplayens

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek aviakompaniyaning ichki hujjatlariga muvofiq Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens xizmatining asosiy vazifalari quydagilar hisoblanadi:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish va "Uzbekistan Airways"da yashirin iqtisodiyot ulushi qisqartirishini ta'minlash;
2. Manfaatlар to'qnashuvining oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
3. Korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish;
4. Korrupsiya xavflarini baholash, ularni minimallashtirish bo'yicha choralar ko'rish;
5. Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar to'g'risida xabarlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va munosabat bildirish;
6. Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlash;
7. Monopoliyaga qarshi kurashish bo'yicha qonun hujjatlarini buzish xavflarini aniqlash;
8. "Uzbekistan Airways"da O'zbekiston Respublikasining monopoliyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchiligi bузilishi xavfini boshqarish (minimallashtirish va bartaraf etish);
9. "Uzbekistan Airways" faoliyati O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchiligi talablariga muvofiqligini nazorat qilish;
10. "Uzbekistan Airways"da monopoliyaga qarshi komplayens ishining samaradorligini baholash;
11. Monopoliyaga qarshi komplayens to'g'risida hisobot tayyorlash va uni tasdiqlash uchun "Uzbekistan Airways" AJ Boshqaruvi raisiga taqdim etish.

2022-yilda "Uzbekistan Airways" tomonidan "Uzbekistan Airways" AJda korrupsiya xatarlarini baholash metodikasi" joriy etildi, unga muvofiq aviakompaniyaning barcha bo'linmalarida korrupsiyon xavflarni baholash tartibi tartibga solinadi.

Shuningdek, 2022-yilda "Uzbekistan Airways" alohida xodimlari va uning tarkibiga kiruvchi korxonalar zimmasiga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarni yuklatish to'g'risida"gi buyruq amalga kiritilgan. Mazkur buyruqqa muvofiq, "Uzbekistan Airways" tarkibiy bo'linmalari xodimlari zimmasiga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlar holatini monitoring qilish vazifasi yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan 2022-yil uchun davlat organlari va tashkilotlarda, shu jumladan mahalliy ijro hokimiyyat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligi baholanib, reyting baholash natijalarining xolisligini ta'minlash maqsadida fuqarolik jamiyat institutlari vakillaridan iborat Ekspertlar guruhi tuzildi.

Baholash natijalariga ko'ra, 62 ta davlat tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati samaradorligi 0 dan 100 ballgacha bo'lgan shkala bo'yicha baholandi. Xususan, "Uzbekistan Airways" tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi 56 ball bilan "qoniqarli" deb e'tirof etildi.

Korrupsiya to'g'risidagi xabarlar uchun mo'ljallangan "Uzbekistan Airways" kompaniyasining mavjud muloqot kanallari qonunchilik talablariga muvofiqligi o'rganildi,

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens xizmati tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha "Ishonch telefoni" (78-140-02-00 (qo'shimcha raqam 6) shaklida qayta aloqa kanali tashkil etildi.

Korrupsiya xavflari yuzasidan ishning shaffofligini oshirish, manfaatlар to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va oldini olish, shuningdek, huquqiy madaniyat darajasini oshirish va "Uzbekistan Airways" xodimlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga qat'iy riosa qilishini ta'minlash maqsadida xizmat tomonidan korrupsiyaga va monopoliyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik sohasidagi 19 ta savolni o'z ichiga olgan so'rovnomada tayyorladi.

Hozirda ushbu so'rovnomada bo'yicha anonim so'rov, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlar orqali o'tkazilmoqda.



2022-yil 26-iyulda "Uzbekistan Airways" Ajda O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi vakillari ishtirokida aviakompaniya xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan "Biz korruptsiyaga qarshimiz!" mavzusida tadbir tashkil etildi. Tadbir ishtirokchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-154-son Farmoni mazmun-mohiyati va ahamiyati tushuntirildi.

Bundan tashqari, tadbir ishtirokchilari korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonun hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish, korruptsion xattiharakatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda huquqiy tarbiyaning o'rni kabi masalalarni muhokama qildilar. Tadbir davomida davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va bartaraf etish samaradorligini oshirish, aviakompaniya xodimlari tomonidan odob-axloq me'yorlariga rioya qilish hamda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun belgilangan javobgarlikka oid masalalar ham ko'rib chiqildi.





Korporativ boshqaruvni baholash

№	Yo'nalish	Savollar miqdori	Mallar		Haqiqiy baho
			minimum	maksimum	
1	Korporativ boshqaruv kodeksini joriy etishga tayyorgarlik tartib-tamoyillarini baholash	13	-135	135	130
2	Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga riona qilishni baholash	37	-360	360	245
3	AJ tashkiliy tuzilmasining muvofiqligini baholash	3	-30	30	30
4	Konkurs tanlovini baholash	5	-45	45	-5
5	MHXS va audit xalqaro standartlariga muvofiq e'lon berishga o'tishni baholash	3	-50	50	-30
6	Zamonaviy boshqaruv tizimlarini (ISO, ERP, NIOKR va boshqalar) joriy etishni baholash	5	-55	55	50
7	Axborot siyosatini baholash	5	-170	320	285
8	Moliyaviy natijalarni baholash	4	-150	150	60
9	Boshqa yo'nalishlarni baholash	25	-205	55	-85
Офш:		100	-1200	1200	680
Foiz shkalasi bo'yicha yakuniy baho			57%		

2022-yil yakunlari bo'yicha "Uzbekistan Airways" AJ korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash "NAZORAT-AUDIT" MChJ tashqi auditorlik kompaniyasi tomonidan o'tkazildi.

Korporativ boshqaruv tizimini baholash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720-son qarori, "Korporativ boshqaruv kodeksi" tavsiyalari va O'zbekiston Respublikasining tegishli organlari tomonidan tasdiqlangan "Korporativ boshqaruv tizimini baholash bo'yicha savolnoma"ga muvofiq amalga oshirildi.



O'zbekiston, Toshkent,
Amir Temur Shoh
ko'chasi, 41
GSP 100060

Tel: +99871 1405396

Veb-sahifa: www.uzairways.com



**Yillik hisobot
2022-yil uchun**

«Uzbekistan Airways» АЖнинг 2022 йил учун йиллик хисоботи Ўзбекистон Республикаси Миллий бухгалтерия стандартлари асосида тайёрланган.
Матн бўйича хатоликлар топган тақдирингизда, alina.umyarova@uzairways.com электрон манзилига хабар беришингизни сўраймиз.